

## O`RTA OSIYO IQLIMIDAN REKREATIONS MAQSADLARDA FOYDALANISH

**Oribjonova Mubinabonu Ilhomjon qizi**  
*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O`rta Osiyo iqlimidan rekreatsion maqsadlarda qanday foydalanish imkoniyatlari haqida yoritilgan. Mintaqadagi quruq continental va subtropik iqlim sharoitlari, tog`li hududlar va tabiiy resurslar sayohat va turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlari haqida ma`lumot beradi.

**Kalit so`zlar:** O`rta Osiyo, iqlim, rekreatsion maqsadlar, turizm, qishloq turizmi, tabiiy resurslar.

### KIRISH

O`rta Osiyo geografik hududi, xilma-xil tabiiy resurslari va o`ziga xos iqlimiy sharoitlari bilan turizm va rekreatsion faoliyatlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O`rta Osiyo o`zining betakror tabiiy iqlimiy sharoiti bilan ijtimoiy iqtisodiy va ekologik, balki rekreatsion maqsadlarda ham foydalanish uchun qulay hudud hisoblanadi. Geografik nuqtai nazardan, cho`l, dasht tog` va suv landshaftlarning o`zaro uyg'un joylashganligi, turizm sog'lomlashtirish va dam olish maskanlari hududlarni barpo etish uchun juda ham qulay sharoit yaratadi.

Rekreatsion maqsadlar - bu jismoniy kuch odamlarni tiklash, dam olishning harakati bilan bog`liq turizm turi. Bu mamlakatlar uchun turizmning eng muhim turlaridan biridir. Shunday qilib, ko`plab sayyohlar sog'lomlashtirish markazlari, sanatoriylarga maxsus tibbiy yordam bilan tashrif buyurishadi, turli xil sog'lomlashtirish muolajalaridan o`tadilar.

O`rta Osiyo iqlimi asosan kontinental va quruq bo`lib, mintaqaning markaziy va janubiy qismlarida yuqori issiqlik va kam yog`ingarchilik kuzatiladi. Mintaqaning iqlimiy sharoitlari va geografik joylashuvi turli turdagi rekreatsion faoliyatlarga mos keladi. O`rta Osiyonining katta qismini tashkil etuvchi kontinental iqlim, mintaqadagi keng dalalar va cho`l hududlari, xususan, O`zbekiston, Qozog`iston, Turkmanistonni qamrab oladi. Bu hududlarda yoz oylari juda issiq, qish oylari esa sovuq va quruq bo`ladi. Ushbu iqlim sharoitlari tog`da sport turlari, qishloq turizmi va sahro turizmi uchun juda ham mos sharoit yaratadi. O`rta Osiyonining janubiy qismlarida, Tojikiston va Qirg`izistonning pasttekislik hududlarida subtropik iqlim hukm suradi. Yoz issiq va quruq, qish esa yumshoq bo`ladi. Bu hududlar yozgi dam olish va plyaj turizmi uchun qulay sharoitlar yaratadi. O`rta Osiyo tog`li hududlari (Tyan-Shan, Pomir va Oloy tog`lari) qishloq turizmi, trekking, alpinizm va qishki sportlar uchun qulay. Yozda bu hududlarda salqin havo, qishda esa qorli va sovuq sport turlari va sog`lomlashtirish faoliyatlari uchun ideal

imkoniyatlar yaratadi. Rekreatsion Maqsadlarda Foydalanish O‘rta Osiyo tog‘li hududlari, xususan, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonning tog‘li qismlari, sayyohlar va sportchilar uchun ajoyib hududlar hisoblanadi. Ushbu hududlarda: Trekking va alpinizm: Yozda tog‘lar salqin va toza havo bilan ajralib turadi, bu esa trekking va piyoda sayohatlar uchun juda mosdir. Snowboard: Qishloq va tog‘li hududlar qish oylarida qor bilan qoplanadi, bu esa qishki sportlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Qirg‘izistonning Issiqko‘l, Tojikistonning Fan tog‘lari bu Snowboard va trekking sportlari bilan shug‘ullanish uchun qulay va uchun mashhur joylardir. O‘rta Osiyoning Kaspiy dengizi bo‘yidagi sohillari plyaj turizmi uchun juda qulaydir. Kaspiy dengizi, xususan, Qozog‘iston va Turkiya sohillari, issiq va quyoshli yoz davrida sayohatchilarni jalb etadi. Bu hududlar suv sportlari, plyaj sportlari va yengil dam olish uchun ideal hisoblanadi. O‘rta Osiyoda qishloq turizmi bo‘yicha ham katta imkoniyatlarga ega. Qishloq hududlarida, xususan, Farg‘ona vodiysi, Qirg‘iziston va Tojikistondagi mahalliy hayot tarzini o‘rganishga qiziqqan sayohatchilar uchun qishloq turizmi rivojlanmoqda. Ushbu turizm turi iqlimning quruq va salqin sharoitlariga asoslanib, ekologik turizm va agroturizmga yo‘naltirilgan. O‘rta Osiyoda ko‘plab tabiiy termal manbalar mavjud bo‘lib, bu hududda sog‘lomlashtirish va davolanish turizmi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Buxoro (O‘zbekiston), Jambil (Qozog‘iston), Hamxor (Tojikiston) kabi hududlar sog‘lomlashtirish markazlari va sanatoriyalar uchun eng yaxshi joylardir. Iqlimning quruq va issiq sharoitlari bu turizm turini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O‘rta Osiyo o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va arxitektura yodgorliklari bilan mashhur. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa tarixiy shaharlar sayohatchilar uchun juda katta qiziqish uyg‘otadi. Bu hududlarda iqlimning issiq bo‘lishi sayohat qilishni ayniqsa bahor va kuzda qulay sharoit yaratadi.

O‘rta Osiyo iqlimi rekreatsion faoliyatlarni turli yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlaydi. Quruq iqlim va ko‘p miqdordagi quyosh nurlari iqlimning yaxshi ko‘rinishi, mintaqada dam olish uchun qulay sharoit yaratadi. Tog‘li hududlar va issiq yozlar plyaj turizmi va tog‘ sportlari uchun imkoniyatlar yaratadi, qishloq turizmi va sog‘lomlashtirish esa salqin tog‘li hududlarda amalga oshiriladi. Geografik nuqtai nazardan, O‘rta Osiyoda turizmning rivojlanishi hududlarning tabiiy resurslarini oqilona boshqarishni talab qiladi. Iqlimning harorat va yog‘ingarchilikning o‘zgarishlari, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun turizm faoliyatlarining ta‘sirini o‘rganish zarur. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan foydalanuvchi turizmning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish lozim. Bugungi kunda Respublikamiz o‘zining betakror rekreatsion turistik resurslari bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida alohida o‘ringa ega. U o‘zining tabiiy, tarixiy, arxitekturaviy

tizimlari va yodgorliklari bilan tanishtirishga yo`naltirilgan yuzdan ortiq sayyohlik yo`nalishlari tashkil etilgan. Ushbu hududlardagi rekreatsion va turistik obyektlarini 140 tasi BMT ning YUNESKO tashkiloti tomonidan muhofazaga olingan. Mintaqamizning tabiiy sharoiti, ichki suvlari, iqlim va o`simlik dunyosining o`ziga xosligi ko`plab dam olish zonalari. Sog`lomlashtirish oromgohlari qurishga sharoit yaratadi. Maxsus komponentsiz va radonli suvlar havzaning Nurobod tumanidagi “Nurbuloq” va “Samarqand” sog`lomlashtirish maskanlarida foydalanib kelinmoqda. Ushbu madan suvi Medano (Italiya), Kroysnax (Germaniya), Alma-Dl-Dragol (Ispaniya), suvlaridan o`xshashlikdan qolishmaydi. Havzaning tog`li hududlarida esa mineral suv manbalari (Omonqo`ton, Qoratepa, Chaqilkalon, Oqtog`, Nurota) topilgan. Ushbu mineral suvlardan hozirgi kunda davolanish maqsadlarida foydalanib kelinmoqda.

## XULOSA

O`rta Osiyo hududi o`zining tabiati xilma-xilligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Bu hududda tog`, cho`l, suvli hududlar mavjud bo`lganligi uchun rekreatsion turizm uchun juda ham qulay. Mintaqaning quruq va kontinental iqlimi, yozda jazirama issiq qishi juda ham sovuq bo`ladi, yozning jarirama issiqligi suyak bo`g`im kasalliklari, teri, buyrak va shunga o`xshash kasalliklarni davolashda qo`l keladi. Bundan tashqari tog`li hududlari, tabiiy resurslari va madaniy merosi sayohatchilarni o`ziga jalb qiladi. Iqlimning rekreatsion faoliyatlarga ta`siri, ayniqsa, tog` sport turlari, sog`lomlashtirish turizmi, plyaj turizmi va madaniy sayohatlar sayyohlarni o`ziga jalb qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. “O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi”.
2. S.B. Abbosov, O`.B. Badalov. O`zbekiston turizmini rivojlantirishda rekreatsiya resurslaridan foydalanish. “O`zbekiston geografiya jamiyati axborotnomasi”.
3. Turizm mamlakat iqtisodiyoti tayanchi. 21 asr gazetasi. 2018 y.
4. X.Vahobov, O`. Yaqubov. Rekreatsion geografiya asoslari. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008 y.
5. Murtazaev, E. M., Nabiyev, E. S., Berdiyev, S. A., Sharipov, S. P., Karimov, A. Q., & Boymuratov, F. X. (2023). Analysis of the effect of heat and corrosion on the mechanical properties of metal structures. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 02053). EDP Sciences.
6. Nabiev, E. (2023). Reliability study of irrigation canals and pipe culvers. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 05025). EDP Sciences.
7. Khuzhakulov, R., Abdimuminov, E. F., & Nabiev, E. S. (2020). Influence Of Filling Soil From Pipe Side On Pipe Strength. Central Asian Journal Of Mathematical Theory And Computer Sciences, 1(10), 1-4.